XALQ DEPUTATLARI SHO‘RCHI TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

Sho‘rchi tumani, Mustaqillik ko‘chasi, +998 91 578 9878, Pochta manzili: 191500

2025-yil 30-dekabr VII-16-165-8-120-K/25 Sho‘rchi tumani

Sho‘rchi tumanining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-,24-moddalari, Budjet kodeksining 27-,99-moddalari, O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” O‘RQ-1105-son Qonuniga muvofiq, xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashining 2025- yil 26-dekabrdagi VII-17-173-8-0-K25-son qarori hamda Surxondaryo viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 26-dekabrdagi 22-13-04/140-sonli, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2025-yil 19-noyabrdagi 01-01-29/15-son xatini inobatga olib, xalq deputatlari Sho‘rchi tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1.O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashining 2025-yil 26-dekabrdagi VII-17-173-8-0-K25-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Sho‘rchi tuman budjetining 2026-yilgi daromadlari **147 524 370 ming so‘m** va xarajatlari esa **147 524 370 ming so‘m**ga ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda Sho‘rchi tuman budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **425 191 ming so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **1 695 000 ming so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (M. Chorshanbiyev), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A. Soatov), tuman soliq inspeksiyasi (Sh. Zokirov) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

7.Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari *(N.Shoyeva)*ga:

Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Sho‘rchi tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (M.Yuldoshev) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni

qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (M.Chorshanbiyev) zimmasiga yuklatilsin.

9. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Sessiya raisi **MAMASHUKUROV OLIMJON KAYUMOVICH**

Xalq deputatlari Sho‘rchi tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-165-8-120-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Sho‘rchi tumani mahalliy budjeti daromadlarining 2026-yilgi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

(ming so‘mda)

T/r	Daromad turlari	Jami
I.	**Mahalliy soliq va tushumlar**	**147 524 370,0**
1	Foyda solig‘i	3 983 000,0
2	Aylanmadan olinadigan soliq	7 198 000,0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	57 047 120,0
	shundan, mol-mulkini ijaraga berishdan tushumlar	920 000,0
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i	
5	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	1 597 200,0
6	Aksiz solig‘i,	
	jami	
	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	
	pivo	
7	benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	2 236 000,0
8	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	13 666 000,0
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	9 846 000,0
10	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	34 471 000,0
11	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	300 000,0
12	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	4 192 000,0
	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	3 832 000,0
	qishloq xo‘jaligi korxonalari	-1 532 800,0
	Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish *(PQ-5)*	360 000,0
13	Boshqa korxonalar	6 472 200,0
14	Davlat boji	4 634 500,0
15	Jarimalar	2 244 150,0
16	Yig‘imlar	250 000,0

17	Davlat mulkini ijarasidan tushumlar	
II.	**Jami**	**0**
	shundan, aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar	
Daromadlar hammasi		**147 524 370,0**

Xalq deputatlari Sho‘rchi tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-165-8-120-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Sho‘rchi tuman mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Sho‘rchi tumani
	Xarajatlar miqdori, jami	**147 524 370**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	*46 363 289*
	shundan:	
	"Mening maktabim"	*4 573 200*
2	Madaniyat bo‘limi	*6 613 672*
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*3 663 541*
4	Sport bo‘limi	*13 643 653*
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*0*
6	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*4 400 691*
7	Irrigatsiya bo‘limi	*1 662 624*
8	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	*0*
9	Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	*164 651*
10	Hokimiyat	***50 985 355***
	shundan:	
	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	*2 710 665*
	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*2 183 204*
	Madaniyat bo‘limi	*160 787*
	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*458 757*
	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi	*197 506*
	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi	*499 843*
	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*885 617*
	Oila va xotin-qizlar bo‘limi	*281 924*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*25 057 440*
	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*2 598 067*
	Zahira jamg‘armasi	*1 695 000*
11	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	*963 450*
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*150 683*
	Axborot-kutubxona markazlari	*812 767*

12	Obodonlashtirish boshqarmasi	19 063 444
13	Boshqa tashkilotlar	0

Xalq deputatlari Sho‘rchi tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-165-8-120-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Sho‘rchi tuman mahalliy budjetining 2026-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Hudud nomi	Daromad	Xarajat
JAMI	**147 524 370,0**	**147 524 370,0**
Sho‘rchi tumani	147 524 370,0	147 524 370,0

Xalq deputatlari Sho‘rchi tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-165-8-120-K/25 -son qaroriga
4-ilova

2026-yilda umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar hamda soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan ajratma me’yorlari

foiz hisobida

№	Hududlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i				Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan				Foyda solig‘i				alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)				pivo				benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i				Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq				Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i			
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar
1	**Sho‘rchi tumani**	0%	97%	100%	3%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%

№	Hududlar nomi	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq				Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq				Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar				Davlat boji		Jarimalar		Yig‘imlar		Aylanmadan soliq		Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i		Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i		Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat’iy miqdorda belgilangan soliq		Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga
		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar																	
1	**Sho‘rchi tumani**	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	88%	12%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%

Izoh:

1. Davlat aktivlarini sotishdan mahalliy budjetlarga tushumlar hamda yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag‘lari tuman va shaharlar hamda viloyat budjeti o‘rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

2. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berishdan tushadigan (3 450 890, 3 450 891, 3 450 892 daromad kodi bo‘yicha) tushgan pul mablag‘lari tuman va shaharlar budjetiga qoldiriladi.

3. Yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan barcha soliklar (mol-mulkni ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i (Termiz shahardan tashqari) bundan mustasno), soliqsiz tushumlar xamda yuqorida ko‘zda tutilmagan barcha boshqa tushumlar viloyat budjetiga yo‘naltiriladi.

Xalq deputatlari Shoʻrchi tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-16-165-8-120-K/25 -son qaroriga
5-ilova

2026-yilda Shoʻrchi tuman mahalliy budjetlarida yoʻl qoʻyiladigan eng kam mablagʻlar miqdori

(ming soʻmda)

T/R	Hudud nomi	Miqdor
	JAMI	**425 191,0**
1	Shoʻrchi tumani	**425 191,0**